

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Umumiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor

K.A. Samiyev

« 10 » 2025 y.

07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi” ixtisoslik fanidan kirish imtihoni

DASTURI

Buxoro – 2025

Ushbu dastur “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasining 2025-yil “25” oktyabrdagi 5-sonli yig‘ilishida muhokama etilgan va maqullangan

Taqrizchilar: T.f.d., professor, H.H.To‘rayev
T.f.n., dotsent, F.H.Bobojonova

Ushbu dastur Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil “28” oktyabrdagi 3-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqildi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish muhim o'rin egallaydi. "O'zbekiston tarixi" fani O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida pedagogik tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Uning asosiy maqsadi - tarix ixtisosligi bo'yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, ushbu fanning shakllanish va rivojlanish tarixini, umumiy kontsepsiyalari va metodologik asoslari, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, chet el davriy nashrlari hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko'rsatib berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning 2011-yil 20-maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-1533- son. 2014-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar tugrisida"gi PQ-2124-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimipi yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ, 2909-son Qarorlari, 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi tugrisida" gi PF 4947-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalari amalga oshirishda ushbu dastur muayyan darajada xizmat qiladi.

Kirish

Dastur «O‘zbekiston tarixi» fanidan tayanch doktorantlar va mustaqil ilmiy izlanuvchilar uchun mo‘ljallab tuzilgan. Savollar ilmiy tadqiqotchilarga mo‘jallangan bo‘lib, muammoli xarakterga ega. O‘zbekiston tarixiga oid masalalar har tomonlama qamrab olingan. Unda xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o‘tgan sharaflari va murakkab tarixiy yo‘li, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy- ma’naviy hayoti sahifalari yoritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalda tatbiq etilayotgan “Harakatlar strategiyasi”da ko‘rsatib o‘tilganidek, hozirgi zamon yoshlarining tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni rivojlantirish, “O‘zbekiston tarixi” fanining inson va jamiyat tarixi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib berish masalalari nihoyatda muhimdir. Shu boisdan dasturda, hozirgi zamon talablari darajasida Vatanimiz tarixining dolzarb masalarini haqqoniy o‘rganish va bu sohada erishilgan eng yangi ilmiy yutuqlarini bilish ham asosiy vazifa sifatida belgilangan. Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida sodir bo‘layotgan globalizatsiya va integratsiya jarayonlarida milliy o‘zlikni anglash, milliy mustaqil va demokratik davlatni rivojlantirish va mustahkamlash, mamlakatimizda siyosiy, ma’naviy va iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi islohotlarni anglab yetish va chuqurlashtirishda “O‘zbekiston tarixi”ni chuqur va keng bilish davr talabidir.

O‘zbekiston tarixi fanining nazariy uslubiy asoslari

O‘zbekiston tarixi fanining nazariy asoslarini belgilashda “O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi” konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur konsepsiyada belgilab berilganidek, ushbu predmetni o‘rganishda va tadqiq etishda eng avvalo o‘zbek xalqining kelib chiqish va shakllanish tarixi, o‘zbek davlatchiligining kelib chiqish va rivojlanish tarixi, jamiyatning ma’naviy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot boosqichlarini o‘rganish dolzarb va muhim masalalar sifatida katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston hududida kechgan jarayonlarni xolisona, xaqqoniy va tarixiylik asosida baxolash esa fanning uslubiy asoslarini tashqil etadi.

Bu o‘rinda tarixiy jarayonlarga bosqichma-bosqich va atroflicha, umumjahon taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda hamda qiyoslagan holda, ayni paytda mahalliy xususiyatlar va mentalitetni nazarda tutgan holda yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston jahonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida umuminsoniy va umummilliy qadriyatlar uyg‘unligida o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mustaqil demokratik davlat mavqeiga egaligi, boy o‘tmishga va tajribaga egaligi tarixiy jarayonlar tahlilida katta o‘rin tutadi.

Ayni paytda tarix fani ijtimoiy tafakkur mahsuli ekanligini nazarda tutib, O'zbekiston tarixi fani jaxon tarixi, arxeologiya, manbashunoslik, etnologiya, etnografiya, o'lkashunoslik kabi tarixiy izlanishlar yo'nalishlari hamda sotsiologiya, falsafa, adabiyot, san'atshunoslik kabi ijtimoiy gumanitar fanlar bilan uzviylik bog'liq fan sifatida o'rganiladi va bunday yondoshuv mazkur predmetni yanada boyitib, atroflicha o'rganishga xizmat qiladi.

O'zbekiston tarixi fanining maqsadi va vazifalari

Mazkur fanning maqsadi vatanimiz hududida inson hayoti boshlangandan to hozirga qadar kechgan va davom etayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot xususiyatlari, ularga ta'sir etgan ichki va tashqi omillar, tarixiy arayonda muhim o'rin tutgan shaxslar faoliyati, mamlakatni jahon hamjamiyati va insoniyat tarixida tutgan o'rnini, o'zbek xalqining ma'naviy olami va qadriyatlari, boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalari kabi masalalarni chuqur o'rganish va tahlil etishdan iborat.

Fanning vazifasi – O'zbekiston tarixini o'rgatish misolida tarixni harakatlantiruvchi omillarni tushuntirish, vatanimiz hududida tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot bosqichlarini va muhim tarixiy voqealarni to'g'ri baholash, davlat va jamiyat taraqqiyotning rivojlanish omillarini tahlil qilishda tarix fanining o'rnini anglab yetish, o'zbek xalqining tarixiy ildizlari, bugungi kundagi holati va kelajak istiqbollarini anglab yetish, insoniyat tarixida O'zbekistonning o'rnini anglab yetishiga erishishdan iborat.

Nomzodlik imtihoni topshiruvchilar bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«O'zbekiston tarixi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida quyidagi muhim masalalarni bilish talab etiladi:

- O'zbekiston tarixining shakllanish va rivojlanishining asosiy bosqichlari;
- Insoniyat jahon tarixida O'zbekistonning o'rnini;
- O'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari;
- O'zbekiston tarixida milliy mustaqillik g'oyasi va mustaqil davlatchilikning ahamiyati;
- O'zbekiston tarixida buyuk shaxslar, allomalar, hukmdorlarning o'rnini va roli;
- Jamiyatning turli qatlamlari va ularning turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy axvoli;
- Siyosiy tuzum va davlatchilik evolyutsiyasi;
- Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot xususiyatlari;
- Ma'naviy va madaniy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari va uning umumjahon madaniyatida o'rnini;

- Mustabid tuzum va mustamlakachilik davri asoratlari va muammolari;
 - Mustaqil davlatchilikning tiklanishi va demokratik taraqqiyot yo'lining asosiy yo'nalishlari, maqsad va istiqbollari;
 - Zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi;
 - Ko'p millatli O'zbekiston xalqining o'zaro va jaxon hamjamiyati bilan aloqalardagi uyg'unlikdagi taraqqiyoti.
- Tadqiqotchi O'zbekiston tarixi fani bo'yicha quyidagi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
- Vatan tarixini chuqur bilgan holda uni jahon tarixi bilan uyg'unlikda va qiyosiy atroflicha tahlil eta olish;
 - Tarixiy jarayonlar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslash va ifodalash;
 - Milliy mustaqillik va umuminsoniy taraqqiyot g'oyalar bilan amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarashga ega bo'lish;
 - Tarixiy jarayonlar tahlilida xolislik, xaqqoniylik va tarixiylik tamoyillariga amal qilish;
 - Zamonaviy jarayonlar mohiyatini anglab yetish va tahlil eta olish;
 - Yangi bilimlarni mustaqil egallay olish;
 - O'z ilmiy faoliyatini tashkil eta olish.

Asosiy qism

O'zbekiston tarixi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. O'rta Osiyo ibtidoiy davri tarixi va bosqichlari.

O'zbekiston tarixi fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan muhim o'rni. Kursni o'rganishning maqsad va vazifalari hamda predmeti. Metodologik ilmiy-nazariy asoslarining usullari va dolzarb masalalari.

Tarixga yangicha sivilizatsion yondashuv. Tarixiy qadriyatlarni o'rganishda milliy mafkuraning roli.

Tarixiy manbalar va ularning turlari. Tarixshunoslik. Og'zaki, yozma manbalar, mahalliy va boshqa manbalar.

O'rta Osiyo ibtidoiy davri tarixi va bosqichlari. Tarixiy davrlar va bosqichlar. Ibtidoiy to'da va urug' jamoasi. Ibtidoiy jamiyat-matriarxat va patriarxat bosqichlari. Arxeologik davrlar va bosqichlar. Ibtidoiy jamoa boshqaruvi bosqichlari. Harbiy demokratiya. O'rta Osiyoda antropogenez jarayoni. Odamning paydo bo'lishi haqida yangicha qarashlar. Irqlarning paydo bo'lishi.

O'rta Osiyoga ibtidoiy odamlarning tarqalishi davrida tabiiy shart-sharoitlar. Ilk tosh asri odamlari va ularning O'rta Osiyoga tarqalishi masalasi. Eng qadimgi odamlar yashagan manzilgohlar. Ilk tosh asri odamlarining mehnat qurollari. Termachilik va ovchilik - ilk tosh asrida shakllangan o'zlashtiruvchi xo'jalik. Ijtimoiy munosabatlar va biologik o'zgarishlar.

O'rta Osiyoning qadimgi muste davri odamlari va ularning mehnat faoliyati. Qadimgi odamlar vujudga kelishdagi tabiiy va tarixiy shart-sharoitlar. Ularning O'rta Osiyo bo'ylab tarqalishi. Qadimgi odam manzilgohlari. Atrof-muhit haqida dastlabki tasavvurlarning shakllanishi. Ijtimoiy munosabatlari. Ibtidoiy to'da va uning o'ziga xos xususiyatlari.

O'rta Osiyo hozirgi qiyofadagi odamlarning shakllanishi va antropogenez jarayoni tugallanishi davrida. Hozirgi qiyofadagi odamlar shakllanishining ijtimoiy va ijobiy zarurati. So'nggi paleolit davri manzilgohlari. So'nggi paleolit davridagi ijtimoiy munosabatlar. O'rta Osiyoda antropogenez jarayonining tugallanishi. O'rta Osiyoda urug' jamoalarining vujudga kelishi. Ibtidoiy to'dalar urug' jamoasiga o'tishning shart-sharoitlari va xususiyatlari.

Mezolit va neolit davrida O'rta Osiyo. Tabiiy iqlim o'zgarishi va geografik sharoit. Mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlari. Mezolit davri madaniyati. Qoyatosh tasvirlari (petroglif). Dastlabki san'atning vujudga kelishi. «Neolit inqilobi» tushunchasi. Tarixiy-madaniy viloyatlarning vujudga kelishi. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi. O'rta Osiyoda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik. Mehnat qurollarining takomillashuvi. Ijtimoiy munosabatlar.

Eneolit, bronza va ilk temir davrida O'rta Osiyo. Eneolit davri bosqichlari va xususiyatlari. Etnik madaniy jarayon va joylarni o'zlashtirish. Eneolit davri makonlari. Ijtimoiy munosabatlar. Xo'jalikning rivojlanishi. Bronza davri va bronza qurollarning xususiyati. Xo'jaligi, turmushi va madaniyati. Ortiqcha mahsulot va birinchi yirik mehnat taqsimoti. Patriarxatning paydo bo'lishi. Kulolchilik charxi va g'ildirakning kashf qilinishi. So'nggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari. Mulkiy tengsizlik. Mudofaa devorlari. Hunarmandchilik va turmush. Ilk temir davrida xo'jalik, turmush va madaniyat. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti. Harbiy demokratiya. Davlatchilikning g'oyaviy asosi va shakllari.

O'rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalari

Mavzuga oid manbalar va uning tarixshunosligi. Ilk temir davridagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat. Tabaqaviy jamiyatning xususiyatlari. Ijtimoiy munosabatlar. Xo'jalik taraqqiyotidagi omillar. Tarixiy jamoalar. Sak va massagetlarning qabilaviy ittifoqlari. Hududiy chegaralari. Markaziy shaharlari. Madaniy va savdo aloqalari. Shaharsozlik. Hunarmandchilik va savdo. Maishiy turmush. Zardushtiylilik e'tiqodi va davlatchilik g'oyasi.

Qadimgi Xorazm, Baqtriya davlatlari. Mavzuning tarixshunosligi. Qadimgi Xorazmning siyosiy sulolalari. Siyovushiylar. Iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlari. Avesto. Qadimgi Baqtriyaning geografik o'rni, tabiati va aholisi. Qadimgi Baqtriyaning tashkil topishi. Baqtriya shaharlari. Xo'jaligi.

Qadimgi Xorazm va Baqtriya Sug‘diyonaning madaniy savdo aloqalari. Davlatchilik g‘oyasining asoslari. Jamiyatning diniy-mafkuraviy udumlari.

O‘rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi. (mil. avv. VI-IV asrlar)

Ahamoniylar saltanatining tashkil topishi va O‘rta Osiyoni bosib olishi. Mavzuga doir manbalar. Kir II va Doro I ning bosqinlari. To‘maris va Shiroq. Frada qo‘zg‘oloni. Sharqiy satrapliklardagi boshqaruv tizimi. O‘rta Ahamoniylar davrida xo‘jalik. Shaharlar. Hunarmandchilik va savdo. Madaniy aloqalar. Tanga-pullarning tarqalishi.

Iskandarning O‘rta Osiyoga yurishlari. Baqtriya, Sug‘d, Ustrushona bosqini. Saklarni ta‘qib etilishi. Spitamen qo‘zg‘oloni. Mahalliy hokimlar va Iskandar munosabatlari. Oksart. Iskandarning bosqinchilik siyosati natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar.

Salavkiylar davrida O‘rta Osiyo. Ellin davlatlarining tashkil topishi. Salavkiylar davlati. O‘rta Osiyo xalqlari Salavkiylar hukmronligi davrida. Salavk I va Antiox I davrida xo‘jalik va madaniy hayot. Salavkiylarga qarshi qo‘zg‘olonlar. Sharqiy viloyatlarning mustaqillikka intilishi. Salavkiylar davrida ellin madaniyatining tarqalishi va madaniyatlar sintezining shakllanishi.

Yunon-Baqtriya podsholigi va Parfiya davlati. Yunon-Baqtriya va Sug‘diyona munosabatlari. Yunon-Baqtriya hududining kengayishi va ravnaqi. Ellin madaniyatining xususiyatlari. Yunon-Baqtriya va Parfiya munosabatlari. Arshakiylar davrida Parfiyaning kuchayishi. Mitridat I va Mitridat II davrida Parfiyaning siyosiy va ijtimoiy qudrati. Xo‘jalik va madaniy hayot.

Qang‘, Dovon va Xorazm davlatlari. Qang‘ davlatining tashkil topishi va chegaralari. Qang‘ davlatining ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va shaharlari. Qang‘ davlatining inqirozi. Dovon (Farg‘ona) davlati haqida manbalar. “Samoviy” otlar. Xitoy bilan munosabatlar. Xorazmda ijtimoiy tizimning shakllanishi. Jonbosqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a yodgorliklari. Dehqonchilik va hunarmandchilik. Madaniyat va din.

Kushon davlati. “Katta Yuechji” davlat uyushmasi. Guyshuan hokimligi va Kujula Kadfiz. Kushon saltanatining tashkil topishi va Kanishka hukmronligi. Savdo munosabatlarida “Buyuk Ipak yo‘li”ning ahamiyati. Xo‘jaligi va shaharlari. Kushonlar davrida madaniyat. Kushon (Baqtriya) yozuvi. Me‘morchilik va san‘at. Din.

O‘rta Osiyoda ilk yer egaligi munosabatlarining shakllanishi (IV- VII asrlar).

Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar davlati. O‘rta Osiyoda “dehqonlar” tabaqasining vujudga kelishi.

IV asrning 70-yillarida Xioniylar davlatining tashkil topishi. Xioniylar va Eron Sosoniylar davlati o'rtasidagi munosabatlar. O'rta Osiyoga toxar kidariylarning (V asrning 20-yillarida) kirib kelishi va o'z hukmronligini o'rnatishi. V asrning o'rtalarida Eftaliylar davlatining tashkil topishi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Turk xoqonligi. Turk xoqonligining tashkil topishi. VI asrning 70-80 yillarida Buyuk Turk xoqonligining tashkil topishi. Turk xoqonligining boshqaruv tartibi. Sharqiy turk xoqonligi va g'arbiy Turk xoqonligi. G'arbiy xoqonlikning kuchayishi. Ijtimoiy hayot. VI-VII asrlarda yer egaligi munosabatlarining rivoji. Buxorodagi Abruy boshchiligidagi qo'zg'olon va uning bostirilishi.

VI-VII asrlarda Sug'd, Farg'ona va Xorazm. Samarqand Sug'di ixshidlarining siyosiy nufuzi. Sug'd konfederatsiyasi mulklari: Samarqand, Kesh, Naxshab, Maymurg', Ishtixon, Panjikent va b. Sug'dning xo'jaligi va ijtimoiy hayoti. Ma'muriy birliklar. Farg'ona, Xorazm va Chochning mustaqil hokimliklari. Farg'ona ixshidlari. Xorazmning Afrig'iy podsholari. Xorazmning Sharqiy Yevropa bilan savdo aloqalari. Choch tudunlari va Eloqdehqonlari. Choch va Eloqning xo'jaligi va madaniy hayoti.

Arab xalifaligi davrida Movarounnahr va Xuroson

Ilmiy manbalar va tarixshunoslik. O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi. Movarounnahr va Xuroson Arab xalifaligi hukmronligi ostida. Arab halifaligi istilosining oqibatlari. Islom dini va uning O'rta Osiyoga tarqatilishi. Ma'naviy madaniyatdagi o'zgarishlar. Arab xalifaligining mustamlakachilik, soliq va diniy siyosati. Xalifalikka qarshi xalq qo'zg'olonlari va ularning oqibatlari.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. XI-XII asrlarda fan va madaniyat

Mavzuning manbalari. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. IX asrning birinchi choragida xalifalikdagi ijtimoiy siyosiy ahvol. Toxir ibn Husayn va toxiriylar davlati. Tohiriylar davrida ijtimoiy hayot. Tohiriylarning ma'muriy boshqaruv tizimi. Tohiriylar davlatining tanazzuli. Safforiylar davlatining tashkil topishi. Safforiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Somoniylar davlati. Manbalar. Somonxudotlar. Asad va uning o'g'illari. IX asrning birinchi yarmida o'g'uz qabilalari. Nasr ibn Ahmad (865-892) davrida Somoniylar hokimiyatining Abossiylar xonligi tomonidan rasman tan olinishi. Ismoil Somoniy va uning islohotlari. Markazlashgan davlat boshqaruvining tashkil topishi. Harbiy islohot. Somoniylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy, iqtisodiy hayot. Somoniylar hukmronligining tugatilishi.

Qoraxoniylar davlati. Mavzuning tarixshunosligi. Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi to'g'ridagi yangicha qarashlar. Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligining o'rnatilishi. Sharqiy va G'arbiy qoraxoniylar. Qoraxitoylarning hujumlari (1137,1141). Qoraxoniylarning davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar davrida ijtimoiy hayot.

G'aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari. Manbalar.G'aznaviylar davlatining tashkil topishi. Mahmud G'aznaviy (998-1030) va uning somoniylar hamda Qoraxoniylar bilan munosabati. Mahmud G'aznaviyning harbiy yurishlari.Mahmud G'aznaviy davlat arbobi sifatida. X-XI asrlarda janubiy va shimoliy Xorazm. G'aznaviylarning davlat boshqaruvi tizimi.

Sirdaryo etaklarida O'g'uz davlatining tashkil topishi. Saljuqiylarning Mas'udga qarshi olib borgan kurashi. Sulton Sanjar davrida (1118-1157) saljuqiylar davlatining yuksalishi. G'aznaviylar va Saljuqiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Xorazmshohlar davlati. Anushteginlar hokimiyatining vujudga kelishi. Qutbiddin Muhammad (1097-1127). Alouddin Muhammad Otsiz (1127-1156) Xorazmshoh El-Arslon (1156-1172). Alouddin Takesh va uning Xorazm davlati yuksalishdagi tutgan o'rne. Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220). Xorazmshohlar davlatining gullab yashnashi. Qoraxitoylar bilan kurash. Xorazmning Movarounnahrda ta'sir doirasining kuchayishi.Buxoroda Malik Sanjar boshchiligidagi qo'zg'olon (1206-1207).1212 yilgi Samarqand qo'zg'oloni. Xorazmshohlar davlatining inqirozi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishini ta'minlagan shart-sharoitlar. XI-XII asrlarda fan va madaniyatning yuksak cho'qqiga ko'tarilishi. Buyuk Ipak yo'lining fan va madaniyat ravnaqida tutgan o'rne. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi va uning fan rivojida ahamiyati. Riyoziyot, falakiyot, kimyo, tibbiyot, jug'rofiya va ijtimoiy fanlarning rivoji. Buyuk qomusiy allomalar. Fanlarni tasniflash.Tarixiy fanlarning rivoji.Adabiyotning rivojlanishi. Kalom ilmi va grammatika. Hadis va fiqh ilmi taraqqiyoti. Tasavvuf va uning ijtimoiy hayotdagi o'rne. So'fiylik tariqatining shakllanishi.

O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida.

XIII asrning boshlarida Mo'g'ulistondagi qabilalar va birlashgan mo'g'ul davlatining tashkil topishi (1206). Chingizxonning harbiy islohoti va bosqinchilik yurishlari. Chingizxonning Movarounnahrda hujumi. Buxoro va Termizning bosib olinishi (1220). Samarqand jangi (1220) va Xorazmshoh Muhammadning Tabaristonga qochishi. Sig'noq, O'zgan, Jandning olinishi (1220). Xo'jand mudofaasi va Temur Malikning jasoratlari. Gurganj mudofaasi (Najmiddin Kubro).

Jaloliddin Manguberdi. Movarounnahr va Xurosonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi. Xorazmshohlar davlati mag'lubiyatining sabablari.

Chig'atoy ulusi va uning boshqaruv tizimi. Chig'atoy ulusida ijtimoiy hayot. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni (1238). Munkaxon (1251-1259) davrida Chig'atoy ulusining tugatilishi. XIII asrning 60-yillarida Olg'o'xon tomonidan Chig'atoy ulusining qayta tiklanishi. Mas'udbekning o'tkazgan pul islohoti (1271). Kepakxonning ma'muriy va pul islohotlari. Chig'atoy sulolasi hukmronligiga barham berilishi. XIV-XV asrning birinchi yarmida madaniy hayot. Me'morchilik. Xalq og'zaki ijodiyoti. Adabiyot va san'at.

Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusidagi siyosiy ahvol. Markazlashgan Temur saltanatining tashkil topishi. Amir Temurning mo'g'ullar ustidan erishgan g'alabasining xalqaro ahamiyati. "Temur tuzuklari". Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi. Amir Temur va bugungi kun. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy hayot. Qishloq xo'jaligining ahvoli. Yerga egalik qilish shakllari. Suyurg'ol yerlari. Tarxon yorlig'i va uning imtiyozlari. Chorvachilik. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Qog'oz hamda bo'yoq ishlab chiqarish. To'qimachilik va to'quvchilik. Kulolchilik. Zargarlik. Konchilik ishlari. Ichki va tashqi savdo. Bozorlarning madaniy markazlar sifatidagi ahamiyati. Xalqaro savdo yo'llari.

Amir Temur va temuriylarning madaniyat rivojlanishiga qo'shgan hissalar. Islom dini doirasidagi mafkuraviy erkinliklar. Ilm-fan ravnaqi. Me'morchilik va qurilish. Amir Temurning shaharsozlik borasidagi siyosati.

O'zbek xonliklari (XVI-XIX asr birinchi yarmi)

Temuriylar davlatining inqiroz sabablari. Bobur va Shayboniylar o'rtasidagi kurash. Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr va Xurosonni bosib olinishi. Temuriylar – Shayboniylar – Safaviylar o'rtasidagi kurash. XVI asrning 40-50 yillarida Shayboniylar o'rtasida o'zaro kurashlar. Shayboniylar davlatining ma'muriy tuzilishi. Buxoro xonligi hududi va tobe hududlar. Ijtimoiy tabaqalar, harbiy va sud ishlari. Xo'jalik sohalari; qishloq xo'jaligi va chorvachilik. Hunarmandchilik va savdo. Yer egaligi munosabatlari. Madaniyat: ilm-fan, adabiyot, tarixshunoslik, amaliy san'at va me'morchilik.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi. Shayboniylar inqirozi va Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi. Imomqulixon davrida hokimiyatning mustahkamlanishi. Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida ichki nizolar va Xiva xonligining Buxoroga hujumlari. Subxonqulixon davrida Xivaning bo'ysundirilishi. Eron – Buxoro – Hindiston munosabatlari. Balx shahrining

markaz sifatidagi mavqeining kuchayishi. Ubaydullaxon II ning ichki siyosati. Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Samarqandda Rajabxon isyoni. Hakimbiy Mang'it O'taliqning kuchayishi. Eron shohi Nodirshohning bosqini. Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiy Mang'itning hokimiyatga kelishi. Ashtarxoniylar inqirozi. Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi va Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi. Ijtimoiy tizimi va harbiy ahvoli. Buxoro xonligining iqtisodiy va harbiy ahvoli. Buxoro xonligining iqtisodiy ahvoli va soliq tizimi. Hunarmandchilik va savdo markazlari. Madaniyat, ilm-fan va adabiyot. Din va tasavvuf. Me'morchilik va amaliy san'at.

Buxoro amirligi

(XVIII asr ikkinchi yarmi –XIX asrning birinchi yarmi)

Muhammad Raximxonning hokimiyatga kelishi. Markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlanishi va viloyatlarning bo'ysundirilishi. Doniyolbiy davrida ichki nizolar. O'zbek urug'lari amirlarining isyoni va qo'zg'olonlarning kuchayishi. Shohmurodning hokimiyatga kelishi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Moliya, sud, ma'muriy va harbiy islohotlar. Qarshi shahri nufuzining ortishi.

Amir Haydar davrida siyosiy keskinlik va qo'zg'olonlar. Amir Nasrullo davrida harbiy islohotlar va davlat hokimiyatining mustahkamlanishi. Buxoroning hududiy yaxlitligining tiklanishi. Qo'qon xonligining bosib olinishi. Buxoro – Xiva munosabatlari. Shahrisabz – Kitob beklilari. Amir Muzaffarxon davrida Buxoroning Rossiyaga qaram bo'lishi. Amirlikda davlat boshqaruv tizimi va ma'muriy tuzilishi. Ijtimoiy tabaqalar. Harbiy va sud ishlari. Hunarmandchilik va savdo. Madaniyat va din. Ta'lim, ilm-fan, adabiyot va tarixnavislik. Me'morchilik va xalq amaliy san'ati.

Qo'qon xonligi

(XVIII asr ikkinchi yarmi –XIX asrning birinchi yarmi)

Ashtarxoniylar Ubaydullaxon davrida Farg'onada mustaqil davlatning tuzilishi. Minglar sulolasining hokimiyatga kelishi. Shohruhbiy va uning vorislari davrida Qo'qon xonligi hududining kengayishi. Erdonabiy va Norbo'tabek davrida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Olimxon davrida Qo'qonning siyosiy mavqeini kuchayishi. Qo'qon-Toshkent munosabatlari. Toshkentning O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalari. Toshkent bekligining bo'ysundirilishi. Rossiya bilan savdo munosabatlarining o'rnatilishi.

Umarxon davrida madaniy (adabiy) hayotning yuksalishi. Muhammad Alixon davrida Qorategin, Ko'lob, Darvozning bosib olinishi. Qo'qon –Xitoy munosabatlari. Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo'qonni bosib olishi. Xudoyorxon

davrida qipchoqlarning kuchayishi va Musulmonqul faoliyati. Rossiyaning Qo‘qon xonligiga hujumlari. Qo‘qon xonligining davlat boshqaruv tizimi va ma‘muriy tuzilishi. Ijtimoiy tabaqalar. Harbiy-ma‘muriy amaldorlar. Iqtisodiy hayot: yer-suv munosabatlari, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo. Soliqlar va sud tizimi. Madaniy hayot: ta‘lim, ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik, me‘morchilik va amaliy san‘at.

Xiva xonligi (XVI –XIX asrning birinchi yarmi)

Temuriylar inqirozi va Xiva xonligining tashkil topishi. Shayboniylar davrida (1512-1770) Xiva – Buxoro – Eron munosabatlari. Ko‘hna Urganch va Xiva Xorazm poytaxtlari sifatida.

Abulg‘ozixon va Anushaxon davrida Buxoro – Xiva o‘rtasidagi urushlar. Shohiniyozxon va Sherg‘ozixon davrida Xiva – Rossiya munosabatlari. Elbarsxon davrida Eron shohi Nodirshoh hujumi. Xivada siyosiy parokandalik.

Qo‘ng‘irot inoqlarining hokimiyatga kelishi (1770-1920). Muhammad Raximxon I davrida Xiva xonligining birlashtirilishi. Islohotlar. Kengash (Devon) ta‘sis etilishi. Qoraqalpoqlarning Xivaga bo‘ysundirilishi. Qoraqalpoqlar qo‘zg‘oloni. Said Muhammad Raximxon II (Feruz) davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. Xiva xonligining Rossiyaga qaram davlatga aylanishi.

Xiva xonligining davlat boshqaruv tizimi. Saroy unvonlari: harbiy-ma‘muriy va diniy amaldorlar. Xonlikning ma‘muriy tuzilishi va ijtimoiy tizimi. Harbiy, sud va soliq tizimi. Iqtisodiy va madaniy hayot. Adabiyot, san‘at va din. Me‘morchilik, qabilaviy – etnik munosabatlar.

O‘rta Osiyo xonliklarini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilarga qarshi xalq harakatlari

Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklarga qarshi istilochilik yurishlari. Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi hududlaridagi dastlabki harbiy harakatlar. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyatining tashkil etilishi. Toshkentga xujum va shaharni egallanishi. Xalqning vatan mudofaasi. General M.G.Chernyayev tomonidan «Toshkentni Rossiya tasarrufiga o‘tishi to‘g‘risidagi» sulh shartnomasining mohiyati (1865 yil 1 iyul). Buxoro amirligiga qarshi yurishlar. Rossiya-Buxoro sulh shartnomalari va amirlikni Rossiya vassaliga aylanishi. 1873 yil Xiva xonligiga qarshi yurish. Gandimiyon shartnomasi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka ma‘muriy boshqaruv tizimi. Turkiston general-gubernatorligini tashkil etilishi. General-gubernatorlikning funksiyalari. Chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlaka ma‘muriy-boshqaruv siyosatining mohiyati. Turkiston o‘lkasini boshqarish

xususida 1865-1917 yillar qabul qilingan Nizom va ularning mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi ahamiyati.

1873-1876 yillardagi Qo‘qon xonligidagi xalq harakatlari. XIX asrning 70-yillarida Qo‘qon xonligi. Xonlik hududidagi soliq turlari. Qo‘qon xonligi aholisining siyosiy va iqtisodiy huquqsizligiga qarshi norozlikning kuchayib borishi. Qo‘zg‘olon bosqichlari. Qo‘qon xonligining tugatilishi. Turkiston general-gubernatorligining tarkibida Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi.

XIX asrning 80-90 yillarida Turkiston o‘lkasida xalq harakatlari. Turkiston o‘lkasida mustamlaka sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Turkiston o‘lkasi xom ashyo manbai va tayyor mahsulot bozoriga aylantirilishi. Mustamlaka zulmining kuchayishi va uning natijasida xalq ommasining norozilik kayfiyati va norozilik harakatining kuchayishi. XIX asrning 70-80 yillardagi Farg‘ona vodiysidagi xalq harakatlari. 1892 yilgi Toshkent «Vabo isyoni». Qo‘zg‘olon kelib chiqishining asosiy sabablari. Qo‘zg‘olon ishtirokchilari ustidan o‘tkazilgan sud jarayoni. Xalq harakatlarining tarixiy ahamiyati.

1898 yil Andijon qo‘zg‘oloni. Qishloq xo‘jaligining bir yoqlama rivojlanishi, uning salbiy oqibatlari. Paxta ekiladigan tumanlarda sudho‘rlik tizimining rivojlanishi. Mardikorlar, chorikorlar va qaram dehqonlar sonining o‘sib borishi. Mahalliy aholi turmush tarzining pasayib borishi. Muhammad Ali Dukchi Eshon mustamlaka tuzumga qarshi kurashda xalq yo‘lboshchisi. Uning siyosiy faoliyati. Turkistonda yangi iqtisodiy munosabatlar. Qo‘zg‘olonning umumiy g‘oyasi. Andijon qo‘zg‘oloni ishtirokchilari ustidan olib borilgan sud-tergov jarayoni. Qo‘zg‘olonning tarixiy ahamiyati.

Mustamlakachilik sharoitida Turkiston o‘lkasida madaniy hayot. Turkiston o‘lkasida xalq maorifi tizimi madrasa va maktablar faoliyati. Mustamlaka hukumatining mahalliy maorif tizimiga bo‘lgan munosabati. Turkiston general-gubernatorligining maorif sohasidagi siyosati. Rus-tuzem maktablarini tashkil etish bo‘yicha N.O. Rozenbax tomonidan ishlab chiqilgan loyiha. Mustamlakachilik sharoitida Turkiston o‘lkasida ilm-fan. O‘lkani ilmiy asosda o‘rganilishi. Turkiston o‘lkasida milliy madaniyat musiqa, tasviriy san’at va adabiyot.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida va Xiva xonligidagi ijtimoiy – siyosiy ahvol. Buxoro amirligida va Xiva xonligida xalq norozilik harakatlarining o‘sib borishi va qo‘zg‘olonga aylanishi.

Baljuvon bekligidagi Vose boshchiligidagi dehqonlar harakati. Ko‘hna Urganch, Pitnak, Yangi Urganch, Biybozor, Chimboy, Xo‘jayli, Ilanli, Toshhovuzdagi xalq chiqishlari. Dehqonlar harakatini bostirishda mustamlaka hukmron doiralarining ko‘rsatgan yordami. Qo‘zg‘olonlarning shafqatsizlik bilan bostirilishi. Buxoro

amirligi va Xiva xonligidagi dehqonlar harakatining o'ziga xos xususiyatlari. 1910 yil Buxorodagi siyosiy voqealar va uning sabablari.

Turkiston XX asr boshlarida (1900-1917 yillar)

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkistondagi ijtimoiy –iqtisodiy siyosati. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy hayot. Temir yo'llar qurilishi (Qizilravot-Ashxobod-Samarqand (1888), Toshkent-Orenburg (1900-1906)) va uning Turkiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri. Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi. Rossiya monopolistik kapitalining o'lka xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga kirib kelishi. Turkiston iqtisodiyotida Rossiya monopolistik mavqeining kuchayib borishi.

O'lkada paxta maydonlarining kengayib borishi va paxta hosildorligining oshib borishi. Asr boshlarida sanoat ishchilarining shakllanish jarayoni.

Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati va siyosiy harakatlar. Jadidchilik harakatining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy va istiqlolchilik harakati sifatida maydonga chiqishiga turtki bo'lgan omillar. Turkiston o'lkasi jadidchilik harakati namoyondalari va ularning milliy uyg'onishda tutgan o'rni. Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Bexbudiy (1875-1919) va boshqalar. Jadid maktablari - «usuli savtiya», ya'ni tovush chiqarib o'qish usuliga asoslangan jadid maktablarining tashkil topishi va rivojlanishi. Jadid matbuoti. Jadid madaniy-ma'rifiy tashkilotlari va jadid adabiyoti. Jadidlarning siyosiy qarashlari. Turkiston o'lkasida rus siyosiy partiyalari va tashkilotlarning faoliyati.

Birinchi jahon urushining Turkiston o'lkasiga ta'siri. 1916 yil milliy-ozodlik harakati. Birinchi jahon urushini keltirib chiqargan sabablar. Rossiya imperiyasining urushga kirishi va urushning mustamlaka o'lkalarga ta'siri. Urush yillarida Turkiston o'lkasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Mustamlaka zulmning kuchayishi. Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi iqtisodiyotida tutgan o'rni.

1916 yil 25 iyundagi podsho farmoni va uning mohiyati. Turkiston o'lkasi mahalliy xalqlarining farmonga munosabati. 1916 yil qo'zg'olonining turli viloyatlardagi o'ziga xos xususiyatlari (Xo'jand, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Jizzax va boshqalar). Qo'zg'olon harakatlarini mustamlakachilarga qarshi milliy-ozodlik harakatiga aylanishi. Milliy davlatchilikni tiklash g'oyasini kun tartibi qo'yilishi. Rossiya imperiyasining miliy-ozodlik harakatini bostirish uchun ko'rilgan chora tadbirlari. Jadidlar tomonidan Turkiston o'lkasi xalqlari manfaatlarining Rossiya IV Davlat Dumasida muhokama qilinishi.

